

MALLA SAVDOGAR DOSTONI BADIY TALQINI

Artistic interpretation of the epic "Brown Merchant

*Haqbayeva Xurshida Husan qizi*

*O'zbekiston Davlat San'at va madaniyat instituti*

*"Folklor va etnografiya" yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

*Tel: +998991275224*

**Annotatsiya:** Maqolada doston mutoalasi davomida xalqimizning butkul unitilib borayotgan urf odatlar, ijtimoiy munosabatlari qya tarzda bo'lgani, xalq og'zaki ijodining betakror dostoni ekanligi ifoda etilgan.

**Annotation:** In the article, the reading of the epic is expressed by the unique epic of folk oral creativity, which shows how the customs and social relations of our main people have been completely forgotten.

**Kalit so'zlar:** epos, doston, baxshi, an'ana, ta'lim, o'zbek xalq dostonlari.

**Key words:** epos, epic, bakshi, tradition, education, Uzbek folk epics.

Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy maishiy qiyofasi, ijtimoiy siyosiy kurashlari, ahloqiy estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir. Dostonlardagi ulug'vor poetik umumlashmalar va yuksak badiiy obrazlar ularni dunyo folklorining tengsiz namunalari rus bilinalari, ukrain dumalari, qozoq botirlar jiri, qirg'iz "Manasi", qoraqalpoq "Qirg'izi", hind "Mahobxaratasi" qisqasi, g'arb va sharqning ulkan eposlari qatoriga qo'ydi. Bu esa har kishi qalbida cheksiz milliy iftixor va yuksak tuyg'ularni yanada jo'sh urdiradi. Doston so'zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif ma'nolarida qo'llaniladi. Adabiy termin sifatida bu nom xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Biroq ular hayotni tasvirlash vositalari va usullari jihatidan bir birlaridan jiddiy farq qiladi. Xalq og'zaki ijodida doston o'tmish zamonlar to'g'risida qahramonlik ko'lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir. Epos -bu xalqning qahramonlik ko'lamidagi jonli utmishidir. Uning ilmiy-tarixiy qimmati, ayni paytda juda katta ijtimoiy, madaniy, tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir. Doston murakkab san'at asari bo'lib, uning doston bo'lishi uchun adabiy matn, musiqa bo'lishi, kuylovchi hofizlik san'atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur. Dostonlarda tarixiy voqeilik asosida umumlashgan obrazlar o'z ifodasini topadi. Unda umumlashtirishning uziga xos formasi-epik umumlashtirish hukmronlik qiladi. Dostonda epiklik, xos bo'lib kompozitsion va syujet qurilishi jihatida murakkab voqea hodisalarni qamrab oladi. O'zbek xalq dostonlari juda uzow tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib utdi. Uning

qadimgi namunalari saqlanmagan. Sovet davridagina yozib olish imkoniyati mumkin bo'lgan dostonlar ko'p davrlar osha xalq baxshilarining og'zaki ravishda muayyan o'zgarishlar bilan bizgacha yetip kelgan. Shuning uchun ham ularni xalq baxshilaridan ajratib o'rganish mumkin emas.

Malla savdogar go'ro'g'li turkumiga kiruvchi qadimiy dostonlardan biridir. U mardlik, jasorat, muhabbat, sadoqat timsoli bo'lgan sevgi va sadoqat ila oila mustahkamligini kuylovchi ulkan eposdir. Unda bir oila taqdiri misolida badiiy aks ettirish orqali millat birligi g'oyalari, uning qahramona shon shuhrati va istiqboli, el-yurt faravonligi, oila baxti va vatan ravnaqi uchun kurash baralla yangraydi. Dostonlarimiz asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va ma'naviy quvvat berib keladi. Shuning uchun ular ma'naviy qadriyatlarimizning alohida tarkibiy qismi sanaladi. Marosimlarga aloqador urf odatlar va an'analarning bevosita dostonlarda berilishi masalasiga, ikkinchidan doston kuylashning marosimlar bilan bog'liq tarzda davom etayotgani masalasiga ahamiyat berish kerak. Malla savdogar dostoni o'zbek xalqi eposining yorqin namunalaridan biri. Unda Avazxonning o'z yaqinlari tinchligi, baxtu saodati yo'lida ko'rsatgan qahramonliklari madh etiladi. Shu bilan birga ushbu dostonida jamiyat va inson hayoti masalalari o'ziga xos reallikda qahramonlik va g'o'zallik haqidagi xalq ideallari doirasida kuylanadi. Avazxon nomi yosh avkod shuuriga onalarning allalari orqali juda yoshlikdan singib boradi. Shu bilan u ajdodlar yodi, faxru g'ururi vositasiga aylanadi. Bu doston turkiy xalqlar patriarxat hayotining o'ziga xos poetik ko'zgu sidir. Bu eposning xalq orasida bir necha variantlari keng tarqalgan. Uning to'la variantlari Chorshanbi baxshi Rahmatullayev, O'zbekiston xalq baxshilari Shoberdi baxshi

Boltayev va Abdunazar Poyonov tomonidan kuylangan. Shular orasida eng mukammali, badiiyat jihatdan eng yuksagi O'zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonov tomonidan aytilgan nusxa hisoblanadi. Unda shoirning yuksak dostonchilik mahorati to'la namoyon bo'ladi. Rus folklorshunosi B. Putilov "Epos va marosim" masalasiga alohida e'tibor bergan, ularning bir-biriga bog'liqligini alohida ta'kidlaydi. Darhaqiqat, dostonlar syujetiga nazar tashlansa, B. Putilovning haq ekani ko'rinadi. Bunda garchi olim o'z ilmiy xulosasini asosan rus eposchiligida nuqtai nazaridan ilgari surgan bo'lsada, uning bir fikrini katta o'zbek dostonchiligi ham tasdiqlay oladi. Chunki qaysi o'zbek xalq dostoniga e'tibor qaratmaylik, unda albatta biror bir oilaviy maishiy marosim badiiy ifoda etilganligining, ya'ni tasvirlanganligining guvohi bo'lish mumkin. Ana shundan kelib chiqqan holda folklorshunos J. Eshonqulov: "Shuni aytib o'tish kerakki, eposning, ayniqsa qahramonlik dostonlarining bevosita marosim bilan bog'liq jihatlari hali yetarli darajada o'rganilgan emas" deb yozadi.

Darhaqiqat, Malla savdogar dostonida xalqimizning madaniy maishiy turmush tarzi o'ziga xos oilaviy marosimlari, urf odatlari va an'analari tasviri muhim o'rin

egallaydi.Ularni o'rganish orqali dostonda ajdodlarimizning eng qadimiy va hayotbaxsh an'analarini o'zida mujassam etgan berakror badiiy durdona asar ekanini his etish hamda shu orqali epos vamarosim ning uzviy bog'liqligini anglash mumkin.

Xulosa qilib aytganda Malla savdogar barkamol epos.Unda qo'llangan har bir detal o'z mazmun mohiyatiga ega.Dostonni o'rganish milliy madaniyatimizga bo'lgan cheksiz mehr muhabbat va ehtiromimiz namunasi.Dostonda ifodalangan o'lmas an'analar xalqimiz madaniyatining nodir xazinasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Malla savdogar dostoni.Toshkent.Akademnashr 2019.
2. O'zbek zalg'og'zaki poetik ijodi.
3. Folklorshunoslikka kirish. M.Jo'rayev,J.Eshonqulov.Toshkent 2017
4. M.Saidov O'zbek dostonchiligida badiiy mahorat.Toshkent "Fan"1969.
5. T.Mirzayev. "Alpomish" dostoni o'zbek variantlari.Toshkent 1978.